



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 22 - may

I-58-90-14-220-K/23

Yangi Hayot tuman hokimligi

Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil birinchi chorak davomidagi faoliyati to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi O'RQ-703-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan sudlar faoliyatiga oid axborotni eshitish amaliyotining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-iyuldagi KQ-104-IV-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-107-son qarori va 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-son farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi raisining axborotini tinglab, xalq deputatlari Yangi Hayot tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi raisi Z.Xudoyqulovning "Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil birinchi chorak davomidagi faoliyati to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi raisi Z.Xudoyqulovga:

"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yilida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirish borasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash;

inson huquqlarini himoya qiluvchi sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudda ishlarni ko'rish va hal etishning sifatini oshirish orqali fuqarolar va tadbirkorlarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;

“Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida adolatli sud qarorlarini qabul qilish orqali fuqarolar va tadbirkorlarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash;

fuqarolar hamda tadbirkorlarga o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish;

2023-2026-yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha harakatlar dasturida belgilangan mexanizmlarni sifatli amalga oshirish;

jismoniy shaxslar, tadbirkorlar va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlaridan kelib tushayotgan har bir murojaatni belgilangan muddatlarda, to‘liq va sifatli ko‘rib chiqilishini ta‘minlash hamda murojaatlardagi dolzarb masalalarni ijobiy hal etish, murojaatlarni ko‘rib chiqilishida aniqlangan qonun buzilishi holatlari ustidan nazorat o‘rnatish;

mamlakatimizda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va kiritilayotgan yangiliklarning mazmun-mohiyatini aholiga ochiq muloqotlar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar, davra suhbatlari va huquqiy targ‘ibot ishlari orqali muntazam ravishda yetkazib borish tavsiya etilsin.

3. Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashiga Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan har chorakda axborot kiritib borilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiya (A.Iminoxunov) zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashi raisi**



X.Inogamov